

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANTIRILISHI

Mahamadaminov Eldorbek Elmurod o‘g‘li.

AndMI Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot 4- bosqich talabasi

Z.Qodirov dots.,i.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik faoliyati va olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘shishi, hamda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan. Bunda iqtisodiy o‘shishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili, ya'ni qo'shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, bandlik, aholi daromadlari.

Annotation. This article describes the activities of entrepreneurship, family entrepreneurship in Uzbekistan, sustainable growth of the economy, through on going economic reforms and development of family entrepreneurship in our country. being carried out in Uzbekistan. The analysis of the factors affecting economic growth, for example, the composition of the added shares and the contribution the structure of the added shares and their contribution to the growth of GDP, was considered.

Key words: Entrepreneurship, family entrepreneurship economic growth, macroeconomic indicators, gross domestic product, employment, population income.

ASOSIY QISM: Harakatlar strategiyasida⁹ O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha belgilangan ustivor vazifalar qatoriga oila tadbirkorligini rivojlantirish alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojiga hamda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning hissasi yuqoridir. Shu bilan bir vaqtda oila farovonligi va hayotining

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 O‘zR Qonun xujjatlari to‘plami 2017y.,6- son,70 modda.

sifat darajasi ko'p jihatdan oilaviy tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadga ham bog'liq hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan oilaviy tadbirkorlikni ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish salohiyatini yanada oshirish yo'llarini asoslash dolzarb masalalar qatoriga kiradi. SHu bilan bir qatorda, "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi O'zRes Prezidenti Qarorida "... ijobiy natijalarga erishganishbilarmonliktajribasigaegatadbirkorlarnimahallalardayangibiznes faoliyati bilan shug'ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini klasterlar tashkil etish" vazifasi qo'yilgan

Oilaviy tadbirkorlik – oila a'zolari va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan tashkil etiladigan tadbirkorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Har bir shaxs faoliyatini oilaviy tadbirkorlik shaklida tashkil etish u uchun maqbul tanlov hisoblanadi. Chunki, oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish orqali o'zi yashab turgan hududda faoliyat yuritishi hamda ishlab chiqarilgan mahsulotni shu O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi O'RQ-327sonli «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni, 3- modda "Экономика и социум" №2(117)-1 2024 www.iupr.ru 216 joyning o'zida sotishi mumkin. Bunda u o'z turar joyini yashash uchun mo'ljallanmagan joyga aylantirishi shart emas. Shuningdek, u tadbirkorlik faoliyatini o'z uyida tashkil etsa, elektr energiyasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti va issiqlik ta'minoti kabi kommunal xizmatlar haqini aholi uchun belgilangan tariflarda to'lashi mumkin. Bu esa, boshqa shakldagi korxonalariga nisbatan yengillik va katta imtiyoz demakdir.

Oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan va yuridik shaxs tashkil etgan holda yo'lga qo'yish mumkin. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik oilaviy tadbirkor yuridik shaxs tashkil etgan holdagi oilaviy tadbirkorlik oilaviy korxonadeb nomlanadi Oilaviy korxonafaoliyatning ayrim turlarini faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lganda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy

korxonalar aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va yer qabulidan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq yoki yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishi mumkin emas. Oilaviy korxonalar uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va oldi-sotdi qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni 59110 tani tashkil etgan. Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni № Hududlar Oilaviy korxonalar soni 1 Samarqand viloyati 10499 ta 2 Farg'ona viloyati 6608 ta 3 Surxondaryo viloyati 5847 ta 4 Xorazm viloyati 5488 ta 5 Qashqadaryo viloyati 5226 ta 6 Toshkent viloyati 5073 ta 7 Navoiy viloyati 4157 ta 8 Toshkent shahri 3297 ta 9 Buxoro viloyati 3450 ta 10 Andijon viloyati 2962 ta 11 Qoraqolpog'iston Respublikasi 2172 ta 12 Jizzax viloyati 2140 ta 16 O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi O'RQ-327-sonli «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni, 4- modda "Экономика и социум" №2(117)-1 2024 www.iupr.ru 217 13 Namangan viloyati 1337 ta 14 Sirdaryo 356 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,8 foizni tashkil etdi. Bundan oldin xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshgandi.

Xulosa va takliflar

Oilaviy korxonalar bu – ta’rischilari bir oilaga tegishli bo’lgan, huquqiy va iqtisodiy mustaqil subekt bo’lib, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish jarayonida ta’rischilarning teng kuchli xarakterini ta’minlovchi tashkilotdir. Oilaviy korxonalar mustaqil tashkilot sifatida o’zining boshqaruv tizimi va boshqaruv samaradorligiga ham ega bo’lishi zarur

Oilaviy korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va uni samarali boshqarishdan asosiy maqsad oila ihtiyoorida bo’lgan resurslardan foydalanib, ishlab chiqarish jarayonini yuqori darajada rivojlantirish hamda zarur shart-sharoitlar asosida yuqori boshqaruv samaradorligiga erishish hisoblanadi.

Oilaviy korxonalarini rivojlanishida asosiy yo’l qo’yilayotgan xatolar: yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab darajasida emasligi; mahsulotni harid qiluvchi sub’ektlarni cheklanganligi va uzoq muddatli loyihalarni o’z vaqtida bajarilmasligi; boshqaruvda yetarli malakaviy darajaga ega bo’lmagan mutaxassislarni yetishmasligi va boshqalar.

Oilaviy korxonani barqaror rivojlanishini ta’minlashda eng avvalo oilaviy investitsiya mablag’lari yoki xorijiy investorlar kapitallari bilan xamkorlikda ishlab chiqarish jarayonida raqobat muhitini tashkil etish, uni rivojlanishini ta’minlash hamda uni ishlab chiqarish strategiyasidan samarali foydalanish zarur;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi O‘RQ-327-sonli «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonuni, 4-modda.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.PQ-366-son.15.11.2023.

3.Bayzakova D.F. Supply chain business processes in the example of business incubators. Журнал ”Экономика и социум”Москва: №5(84) 2021 г

4. Bayzakova D.F. Small business as the Main Driver of Economic Development. International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 4 | April 2023. Indoneziya

5. Bayzakova D.F. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 3 | 2023.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.